



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI

IsDB
البنك الإسلامي للتنمية
Islamic Development Bank



MAHALLALARNI RIVOJLANTIRISH KLASTER REJASI

SURXONDARYO VILOYATI SHEROBOD TUMANI

"QORABOG'" MFY, "ZARABOG'" MFY,
"CHORBOG'" MFY, "NURTEPA" MFY,
"XO'JAQIYA-2" MFY

2025-yil



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI



MAHALLALARNI RIVOJLANTIRISH KLASTER REJASI

**SURXONDARYO VILOYATI,
SHEROBOD TUMANI**

**"QORABOG'" MFY, "ZARABOG'" MFY,
"CHORBOG'" MFY, "NURTEPA" MFY,
"XO'JAQIYA-2" MFY**

MUNDARIJA

1. KIRISH	4
1.1 MAHALLANI RIVOJLANTIRISH REJASI (MRR) TO'G'RI SIDA.....	4
1.2 LOYIHA HAQIDAGI MA'LUMOT	4
1.3 METODOLOGIYA	5
1.4 MRRNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI	5
2. STRATEGIK QISM	6
2.1 MAQSAD VA VAZIFALAR.....	6
2.2 SHEROBOD TUMANI HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT	6
2.2.1 TUMAN XARITASI	6
2.2.2 TUMAN HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT (DEMOGRAFIYASI, HUDUDI, MAHALLALAR SONI)	7
2.2.3 MAVJUD INFRATUZILMA HOLATI HAQIDA MA'LUMOT	7
2.2.4 IJTIMOY, IQTISODIY VA EKOLOGIK XUSUSIYATLARI	7
2.2.5. SALOMATLIK KO'RSATKICHLARI	8
2.2.6 MAQSADLI MAHALLALAR HAQIDA MA'LUMOT (MARKAZIY VA YONDOSH MAHALLALAR)	8
2.2.7 MAHALLALAR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR	8
3. OPERATSION QISM	10
3.1 "QORABOG'" MFY	10
3.1.1 MFY HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT	10
3.1.2 MFY XARITASI (BOSH SXEMASI).....	10
3.1.3 INFRATUZILMA	10
3.1.4 IQTISODIY SOHA.....	11
3.1.5 EKOLOGIK JIHATLARI	11
3.1.6 SWOT TAHLIL	11
3.1.7 ANIQLANGAN MUAMMOLARNING UMUMIY RO'YXATI	12
3.1.8 USTUVOR MUAMMOLAR RO'YXATI VA ULARNI YECHISH YO'LLARI (ITB HISOBIDAN)	13
3.1.9 SUBLOYIHALAR	14
1-SONLI SUBLOYIHA. ICHIMLIK SUVI TAMINOTINI YAXSHILASH	14
2-SONLI SUBLOYIHA. 35-MAKTABNI REKONSTRUKSIYA QILISH	16
3-SONLI SUBLOYIHA. 34-MAKTABNI REKONSTRUKSIYA QILISH.....	18
4-SONLI SUBLOYIHA. PIYODALAR YO'LAGI QURISH (TUNGI YORITISH CHIROQLARI BILAN BIRGA).....	19
3.1.10 TASHABBUSKOR GURUH RO'YXATI	20
3.2 "ZARABOG'" MFY	21
3.2.1 MFY HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT	21
3.2.2 MFY XARITASI (BOSH SXEMASI).....	21
3.2.3 INFRATUZILMA	21
3.2.4 IQTISODIY SOHA.....	21
3.2.5 EKOLOGIK JIHATLARI	22
3.2.6 SWOT TAHLIL	22
3.2.7 ANIQLANGAN MUAMMOLARNING UMUMIY RO'YXATI	23
3.2.8 USTUVOR MUAMMOLAR RO'YXATI VA ULARNI YECHISH YO'LLARI (ITB HISOBIDAN)	24
3.2.9 SUBLOYIHALAR	25
1-SONLI SUBLOYIHA. ICHKI YO'LLARNI ASFATLASH	25
2-SONLI SUBLOYIHA. ELEKTR TA'MINOTINI YAXSHILASH	26
3-SONLI SUBLOYIHA. ICHIMLIK SUVI TA'MINOTINI YAXSHILASH	28
4-SONLI SUBLOYIHA. PIYODALAR KO'PRIKLARI QURISH	29
5-SONLI SUBLOYIHA. PIYODALAR YO'LAGI QURISH (TUNGI YORITISH CHIROQLARI BILAN BIRGA).....	31
3.2.10 TASHABBUSKOR GURUH RO'YXATI	32

3.3 "CHORBOG'" MFY	33
3.3.1 MFY HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT	33
3.3.2 MFY XARITASI (BOSH SXEMASI)	33
3.3.3 INFRATUZILMA	33
3.3.4 IQTISODIY SOHA	34
3.3.5 EKOLOGIK JIHATLARI	34
3.3.6 SWOT TAHLIL	34
3.3.7 ANIQLANGAN MUAMMOLARNING UMUMIY RO'YXATI	35
3.3.8 USTUVOR MUAMMOLAR RO'YXATI VA ULARNI YECHISH YO'LLARI (ITB HISOBIDAN)	36
3.3.9 SUBLOYIHALAR	37
1-SONLI SUBLOYIHA. ICHKI YO'LLARNI ASFALTLASH	37
2-SONLI SUBLOYIHA. 45-MAKTABNI REKONSTRUKTSIYA QILISH	39
3-SONLI SUBLOYIHA. ICHIMLIK SUVI TA'MINOTINI YAXSHILASH	40
4-SONLI SUBLOYIHA. PIYODALAR YO'LAGI QURISH (TUNGI YORITISH CHIROQLARI BILAN BIRGA)	42
3.3.10 TASHABBUSKOR GURUH RO'YXATI	43
3.4 "NURTEPA" MFY	44
3.4.1 MFY HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT	44
3.4.2 MFY XARITASI (BOSH SXEMASI)	44
3.4.3 INFRATUZILMA	44
3.4.4 IQTISODIY SOHA	45
3.4.5 EKOLOGIK JIHATLARI	45
3.4.6 SWOT TAHLILI	45
3.4.7 ANIQLANGAN MUAMMOLARNING UMUMIY RO'YXATI	46
3.4.8 USTUVOR MUAMMOLAR RO'YXATI VA ULARNI YECHISH YO'LLARI (ITB HISOBIDAN)	47
3.4.9 SUBLOYIHALAR	48
1-SONLI SUBLOYIHA. ICHKI YO'LLARNI ASFALTLASH	48
2-SONLI SUBLOYIHA. ICHIMLIK SUVI TA'MINOTINI YAXSHILASH	49
3-SONLI SUBLOYIHA. PIYODALAR YO'LAGI QURISH (TUNGI YORITISH CHIROQLARI BILAN BIRGA)	51
3.4.10 TASHABBUSKOR GURUH RO'YXATI	52
3.5 "XO'JAQIYA-2" MFY	53
3.5.1 MFY HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT	53
3.5.2 MFY XARITASI (BOSH SXEMASI)	53
3.5.3 INFRATUZILMA	53
3.5.4 IQTISODIY SOHA	54
3.5.5 EKOLOGIK JIHATLARI	54
3.5.6 SWOT TAHLILI	54
3.5.7 ANIQLANGAN MUAMMOLARNING UMUMIY RO'YXATI	55
3.5.8 USTUVOR MUAMMOLAR RO'YXATI VA ULARNI YECHISH YO'LLARI (ITB HISOBIDAN)	56
3.5.9 SUBLOYIHALAR	57
1-SONLI SUBLOYIHA. ELEKTR TA'MINOTINI YAXSHILASH	57
2-SONLI SUBLOYIHA. ICHKI YO'LLARNI ASFALTLASH	59
3-SONLI SUBLOYIHA. ICHIMLIK SUVI TA'MINOTINI YAXSHILASH	60
4-SONLI SUBLOYIHA. PIYODALAR YO'LAGI QURISH (TUNGI YORITISH CHIROQLARI BILAN BIRGA)	62
3.5.10 TASHABBUSKOR GURUH RO'YXATI	63

1. KIRISH

1.1 MAHALLANI RIVOJLANTIRISH REJASI (MRR) TO'G'RSIDA

MRR aholi va ma'muriyat uchun mahallaning ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan hujjatdir. Ushbu hujjatda mavjud muammolar, ustuvor muammolar, yechimlar, zarur moliyaviy resurslar va ularning manbalari, shuningdek, subloyihalarning bosqichlari, loyihalarning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan yondashuvlar o'z aksini topgan.

Ushbu hujjatdan mahalla infratuzilmasini rivojlantirishning barcha zarur jihatlarini qamrab olgan holda, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik sohalarni rivojlantirishda foydalanish mumkin.

MRR tegishli tomonlarning birgalikdagi ishtirokida muntazam ravishda o'zgartirilishi va yangilanishi kerak bo'lgan "jonli hujjat" hisoblanadi.

1.2 LOYIHA HAQIDAGI MA'LUMOT

Loyiha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-martdagi Islom taraqqiyot banki ishtirokida "Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish" (2-bosqich) loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-141-sonli qaroriga muvofiq, qishloq aholisining ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash, hududlarni kompleks rivojlantirish, yashash sharoitlarini yaxshilash, aholi turmush darajasini oshirish, yo'l-transport infratuzilmasi, muhandislik va kommunikatsiya tarmoqlari, hamda ijtimoiy soha obyektlarini qurish orqali amalga oshiriladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi loyihani amalga oshirish jarayonida mas'ul ijrochi organning hamkori sifatida ishtirok etadi.

Loyiha Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining 21 ta tumanidagi 157 ta MFYlarda amalga oshirilmoqda. Loyihani amalga oshirish muddati 5 yil (2024-2028).

Loyiha Islom taraqqiyot banki (ITB) tomonidan moliyalashtiriladi va Iqtisodiyot va Moliya vazirligi (IMV) ijrochi tashkilot/ijro etuvchi hamkor sifatida faoliyat yuritayotgan "O'zbekiston – qishloqni barqaror rivojlantirish" loyihasining ajralmas qismi hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) mahalliy hamkorlarga (mahallalar, arxitektorlar, muhandislar, mahalliy hokimiyat organlari) MRRni ishlab chiqish va amalga oshirish, hamda ushbu loyiha doirasida mahalliy tejankor yashil energiya va raqamli yechimlarni ilgari surishda imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan. Loyiha maqsadli mahallalar va hamkorlarning ekologik toza yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirish salohiyatini oshirishga qaratilgan bo'lib, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish orqali inson taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining 21 ta tumanlaridagi 157 ta qishloq aholisining turmush darajasini oshirish, transport tarmoqlari va energiya ta'minotini yaxshilashga qaratilgan aholining keng ishtirokida mahalliy davlat hokimiyati jarayonlarini kuchaytirish asosida ijtimoiy soha obyektlari – bolalar bog'chalari, umumta'lim maktablari va qishloq vrachlik punktlarini qurish va rekonstruksiya qilishda foydali, hamda ekologik toza texnologiyalarni joriy etishni o'z ichiga oldi. Loyihani amalga oshirish muddati 5 yil (2024-2028 yillar).

"Qishloqni joylarni kompleks rivojlantirish" loyihasining asosiy tadbirlaridan biri maqsadli mahalliy hamjamiyatlarning mahalliy ehtiyojlarni aniqlash va harakat rejalarini, ya'ni mahallani (shu jumladan ayollar va yoshlar) jalb qilish va submintaqaviy, shuningdek, mahalliy hokimiyat organlari bilan maslahatlashuvlar orqali optimal va uzoq muddatli manfaatlarga olib keladigan investitsiyalar uchun ustuvor infratuzilmani aniqlaydigan MRR ishlab chiqish salohiyatini kuchaytirishdan iborat.

1.3 METODOLOGIYA

Mahallalardagi vaziyatni baholash jarayonida BMTTD MRRni ishlab chiqish metodologiyasidan foydalanildi va mahallalar xaritasini tuzish, muammolarni aniqlash va ularni tartiblash, ustuvor yo'nalishlarni tanlash, hududlarga bo'lish kabi vositalar qo'llanildi. Muammolarni aniqlashda mahalla xaritasi, muammoli xaritalash, reyting, yarim tizimli suhbatlar va ochiq muhokama usullaridan foydalanildi. Tadbirga tayyorgarlik ko'rish jarayonida mahalla to'g'risida zarur ma'lumotlar to'plandi, demografik ma'lumotlar, MFY infratuzilmasi, binolar, uy-joylar, uy xo'jaliklari va korxonalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ART va MFY pasportlari tahlil qilindi.

<https://srdp.uzrd.uz/folder/2/documents>

1.4 MRRni ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI

Ushbu loyiha uchun MRR quyidagi 11 asosiy bosqichni amalga oshirish orqali ishlab chiqilmoqda:

1. **Tuman hokimligi uchun MRR tushunchasi taqdimoti:** Tuman hokimligiga xizmatlar (elektr, suv ta'minoti, yo'l va boshqalar) va ijtimoiy xizmatlar (maktab, bolalar bog'chalari, OSHP va boshqalar) va tanlangan mahallalar raislari bilan uchrashuvni tashkil etish yuzasidan rasmiy xat bilan murojaat qilish.
2. **Tuman hokimligi huzurida ishchi guruhini tuzish:** Faoliyatning borishini muvofiqlashtirish uchun ishchi guruh tuziladi. Ishchi guruh tarkibiga tuman hokimi o'rinbosarlari, kommunal xizmat ko'rsatish va ijtimoiy soha vakillari kiradi.
3. **Mahalla haqida ma'lumot to'plash:** Mahallaning umumiy joylashuvi va aholisi haqidagi ma'lumotlarni to'plash.
4. **Mahalla uchun jamoatchilik safarbarligi bo'yicha seminar o'tkazish:** Bu asosiy bosqichda mahalla aholisining kamida 5 foizi qatnashib, mavjud muammo va ehtiyojlarni aniqlash, muammolarni ustuvorligini shakllantirish va Tashabbuskor guruhni (TG) aniqlash maqsadida yig'iladi. Seminar davomida loyihaning taqdimoti ham amalga oshiriladi.
5. **TG bilan ishlash va muammolarni hal qilish yo'llarini ishlab chiqish:** Fasilitatorlar mahalla aholisi bilan uchrashgandan so'ng, aniqlangan muammolarni hal qilish yo'llarini ishlab chiqish uchun TG bilan ishlaydi. TG gender balansini etiborga olgan, holda 10 kishidan iborat bo'lishi kerak. (MFY raisi, hokim yordamchisi va xotin-qizlar faoli, MFYning barcha ko'chalaridan yoshlar, hamda faollarni kiritish kerak).
6. **Muammolarni vizual va texnik tekshirish:** TG, yordamchilar va loyiha muhandisi aholi tomonidan bildirilgan barcha muammolarni tekshirish va ularni hal qilish yo'llari bilan muammolar ro'yxati bo'yicha dalolatnoma tuzish uchun joylarga boradi. Loyiha muhandisi ustuvor muammolarni texnik nuqtai nazardan ko'rib chiqadi.
7. **Ustuvor muammolar ro'yxatini kelishish bo'yicha ishchi guruh bilan uchrashuv:** Tuman hokimligida tashabbuskor va ishchi guruhlar uchrashuvi, hamda aniqlangan ustuvor muammolar ro'yxatini muhokama qilish.
8. **MRRni tayyorlash:** TG fasilitatorlar, muhandis va jamoat safarbarligi mutaxassislari yordamida MRR tayyorlanadi.
9. **Mahallada va tuman hokimligida MRRning taqdimoti:** Tashabbuskorlar ko'magida mahalla va hokimlik uchun MRRning taqdimoti.
10. **TG tomonidan subloyihalarning amalga oshirilishini monitoring qilish va baholash:** Joylarda loyiha ishlarini amalga oshirish jarayonida TG tomonidan MRR subloyihalarini amalga oshirish, monitoringi va baholash.
11. **TG tomonidan MRRni yillik qayta ko'rib chiqish va yangilash:** TG har yili MRRni qayta ko'rib chiqadi va yangilaydi.

2. STRATEGIK QISM

2.1 MAQSAD VA VAZIFALAR

Mahallalar rivojlantirish rejasini ishlab chiqishdan maqsad pastdan yuqoriga yondashuvi asosida, ya'ni mahallalar muammolarini aniqlash jarayonida aholining bevosita ishtiroki bilan barcha turdagi muammolarini qamrab oladigan reja ishlab chiqishdan iborat.

Mahallalar rivojlantirish rejasining vazifalari muammolar va ehtiyojlarni aniqlash, aniqlangan muammolarga ustuvorlik berish, qisqa va uzoq muddatli istiqbolda yechimlarni topish uchun jamiyatlardagi vaziyatni baholashni o'z ichiga oladi. Shuningdek, MRR ni ishlab chiqish jarayonida mahalla faollaridan tashkil topgan TG va tuman hokimligida ishchi guruh tuziladi.

Mahallalar rivojlantirish rejasini kichik loyihalar (subloyihalar) ro'yxatini o'z ichiga oladi, ular manzilli ro'yxatlarni shakllantirish va tender bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

2.2 SHEROBOD TUMANI HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

2.2.1 TUMAN XARITASI



Xarita-1. Surxondaryo viloyati Sherobod tumanining joylashgan joyi

2.2.2 TUMAN HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT (DEMOGRAFIYASI, HUDUDI, MAHALLALAR SONI)

Sherobod tumanining umumiy yer maydoni 2,73 ming kv.kmni tashkil qiladi. Sherobod tumanida umumiy tuman va shaharlar soni 1 tani tashkil qiladi. Sherobod tumanining chegara uzunligi 201 km (shundan, Turkmaniston Respublikasi — 89 km, Qiziriq tumani — 30 km, Boysun tumani — 50 km, Muzrabot tumani — 32 km)dan iborat. Tuman viloyat markazidan — 60 km uzoqlikda joylashgan.

Sherobod tumanining umumiy aholi soni 213,9 ming kishini tashkil qiladi. Aholisi, asosan, o'zbeklar (95,9%) shuningdek, tojik, rus, turkman, tatar, qozoq, koreys va boshqa millat vakillari yashaydi.

Tumanda 48 ta mahalla fuqarolar yig'inlari mavjud. Umumiy xonadonlar soni 38 797 tani tashkil etadi. Umumiy oilalar soni esa 50 888 dan iborat.

2.2.3 MAVJUD INFRATUZILMA HOLATI HAQIDA MA'LUMOT

Sherobod tumanida maktablar 77ta (29998 o'rin), MTTlar 208ta (12926 o'rin), sog'liqni saqlash muassasalari 44ta (690 o'rin/1950 qatnov), kollejar va texnikumlar soni 5 ta (2086 o'rin), sport obyektlari 31ta, kutubxonalar soni 1ta (45 o'rin), madaniy meros obyektlari soni 99ta, madaniyat va istirohat bog'lari 1ta bo'lib, tuman aholisi uchun xizmat ko'rsatadi. Sherobod tumanida umumiy ichimlik suvi tarmoqlari uzunligi 867,5 km, elektr tarmoqlari uzunligi 1647,6 km, aloqa tarmoqlari (kabel) uzunligi 1490 km, oqova suv tarmoqlari uzunligi 12 km, tabiiy gaz tarmoqlari uzunligi 102,4 km, avtomobil yo'llari uzunligi 1354,6 kmni tashkil etadi.

2.2.4 IJTIMOIIY, IQTISODIY VA EKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sherobod tumani bo'yicha jami mehnat resurslari 115,4 mingni tashkil etadi. Iqtisodiy faol aholi 80,3 mingdan iborat. Jami band aholi soni 74,5 ming kishini, rasmiy sektorda band aholi soni esa 24,1 ming kishini tashkil etadi. Norasmiy sektorda band aholi soni 40,5 ming kishidan iborat. Ishsizlar soni 4,8 ming kishidan iborat. Migrantlar soni 7,9 ming kishini tashkil etadi. Iqtisodiy nafaol aholi 35,1 mingdan iborat. Sherobod tumanida ishsizlik darajasi 6,1%, kambag'allik darajasi esa 7,2%dan iborat.

Sherobod tumanida 4ta yirik sanoat korxonalari, 372ta kichik sanoat korxonalari va 3ta (1ta YoSZ va 2 ta KSZ) sanoat zonalarini faoliyat olib bormoqda. Tumanda ro'yxatga olinganlar kichik biznes obyektlari 2356 ta, faoliyat ko'rsatayotganlari 1522 ta, faoliyat ko'rsatmayotganlari 834ta, faoliyatini tugatganlar 103ta, yangi tashkil etilganlari 231tadan iborat. Tumanda 5ta bozorlar va savdo komplekslari aholiga xizmat qilib kelmoqda. Tuman qishloq xo'jaligi asosan dehqonchilik, chorvachilik, paxta va to'qimachilik klasterlaridan tashkil topgan.


Tumanda paxta tozalash, keramika, g'isht, un zavodlari, MTP, „Xo'jaikon“ tuz koni, „Kampirtepa“ granit karyeri, 130dan ziyod xususiy firma, 16ta aksiyadorlik jamiyati, dehqon bozori, qurilish va transport korxonalari, 250ta savdo, 170ta maishiy xizmat, 50ta jamoa ovqatlanish obyektlari mavjud. Qishloq xo'jaligi, asosan, paxtachilik, g'allachilik va chorvachilikka ixtisoslashgan. Sabzavotchilik, polizchilik va pillachilik ham rivojlangan.

Sherobod tumanida 11ta shirkat, 3ta dehqon fermer xo'jaliklari uyushmasi, 256ta fermer, 1ta asalarichilik, 2ta qorako'lchilik xo'jaliklari mavjud. Sug'oriladigan yerlarning 16,5 ming gektariga paxta, 13,4 ming gektariga g'alla ekiladi. Shuningdek, kartoshka, sabzavot va poliz mahsulotlari, uzum, meva ham yetishtiriladi.

Tuman hududida „Oqtosh“ va „Vandob“ sanatoriya va sog'lomlashtirish oromgohlari joylashgan. Tumanning janubiy chegarasi bo'ylab Zang kanali, sharqdan Sherobod magistral kanali oqadi. Oqtosh, Dashxo'rd, Zarabog' qishloqlari atroflarida qadimda foydalanib kelinayotgan korizlar bor. Tekislikda och va to'q bo'z tuproqlar, adirlarda arid, tog'larda sur tuproqlari tarqalgan.

2.2.5. SALOMATLIK KO'RSATKICHLARI

Sherobod tumani salomatlik ko'rsatkichlari bo'yicha nafas olish a'zolari, qon aylanish tizimi, qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari yuqori darajada saqlanib kelinmoqda. Tibbiy xizmat tizimi ushbu turdagi kasalliklar bilan ustuvor shug'ullanishmoqda. Shuningdek, tumanda ichki seksiyalar bezlari, ovqatlanish va modda almashinish buzilishi, asab tizimi kasalliklari bo'yicha ko'rsatkich yuqori. Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari, siydik-tanosil tizimi kasalliklari ham ko'payib borayotganligi haqida ma'lumot keltirilgan.



2.2.6 MAQSADLI MAHALLALAR HAQIDA MA'LUMOT (MARKAZIY VA YONDOSH MAHALLALAR)

Markaziy mahalla	Yondosh mahallalar			
"Qorabog'" MFY	"Zarabog'" MFY	"Chorbog'" MFY	"Nurtepa" MFY	"Xo'jaqiya-2" MFY

2.2.7 MAHALLALAR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

Nomlanishi	Jami	"Qorabog'" MFY	"Zarabog'" MFY	"Chorbog'" MFY	"Nurtepa" MFY	"Xo'jaqiya - 2" MFY
Umumiy maydoni	2 888	180	100	54	375	2 179
Tashkil topgan yili	-	1 996	2 013	1 993	1 995	2 014
Tuman markazigacha bo'lgan masofa:	-	47	45	66	9	14
Mahalla aholi soni	20 682	4 495	3 705	4 029	3 225	5 318
Shu jumladan: Erkaklar soni	10 764	2 350	1 940	2 142	1 570	2 762
Ayollar soni	9 918	2 145	1 765	1 887	1 565	2 556
Bolalar soni (3–7 yosh)	2 065	418	422	386	307	532
O'smirlar soni (7–18 yosh)	3 670	841	754	651	454	970
Yoshlar soni (18–30 yosh)	4 288	553	848	1 043	645	1 219
Oilalar soni	5272	1227	950	935	845	1315

Nomlanishi	Jami	"Qorabog'" MFY	"Zarabog'" MFY	"Chorbog'" MFY	"Nurtepa" MFY	"Xo'jaqiya - 2" MFY
Xonadonlar soni	4205	1065	705	786	585	1064
Ishsizlar soni	459	110	45	155	120	29
Imkoniyati cheklangan aholi soni	310	131	68	80	17	14
Ijtimoiy infratuzilma obyektlari:	-	-	-	-	-	-
a) Yo'l (km)	114,5	31,5	14	18	31	20
• Markaziy yo'llar	44	22	2	5	10	5
• Ichki ko'chalar	70,5	9,5	12	13	21	15
• Trotuar	0	0	0	0	0	0
b) Ta'lim obyektlari	18	5	4	5	2	2
Umumiy ta'lim maktablariga jalb qilinganlik ko'rsatkichi (%)	100%	100%	100%	100%	100%	100%
• Maktablar soni	11	2	2	3	2	2
○ Davlat	11	2	2	3	2	2
○ Xususiy	0	0	0	0	0	0
c) Maktabgacha ta'limga jalb qilinganlik ko'rsatkichi (%)	52%	24.5%	45%	94%	65%	31%
• Maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni	11	1	2	2	3	3
○ Davlat	4	0	1	2	1	0
○ Xususiy	6	3	1	0	2	3
d) Sog'liqni saqlash muassasalari	2	1	1	1	0	0
• Shifoxonalar soni	0	0	0	0	0	0
○ Davlat	0	0	0	0	0	0
○ Xususiy	0	0	0	0	0	0
• Oilaviy poliklinikalar soni	0	0	0	0	0	0
○ Davlat	0	0	0	0	0	0
○ Xususiy	0	0	0	0	0	0
• oilaviy sog'liqni saqlash bo'linmalari soni	2	0	1	1	0	0
○ Davlat	2	0	1	1	0	0
○ Xususiy	0	0	0	0	0	0
e) Infratuzilma ko'rsatkichlari:	-	-	-	-	-	-
• Markazlashtirilgan ichimlik suvi bilan ta'minlash (%)	23	25%	20%	20%	25%	24%
• Elektr bilan ta'minlanganlik (%)	100%	100%	100%	100%	100%	100%
○ Elektr uzatish liniyasi (km)	99,4	17	14,7	18,5	25	24,2
○ Transformator (dona)	28	6	4	8	8	2
○ Tungi yoritish tizimi (km)	0	0	0	0	0	0
• Ko'priklar (dona)	6	3	1	0	1	1
f) Tadbirkorlik faoliyatining mavjudligi	0	0	0	0	0	0
• Dehqon xo'jaliklari	71	4	7	5	15	40
• Fermer xo'jaliklari	34	12	1	11	5	5
• Xususiy firmalar	6	1	0	0	5	0
• Yakka tartibdagi tadbirkorlar	118	46	3	12	7	50

3. OPERATSION QISM

3.1 "QORABOG'" MFY

3.1.1 MFY HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

"Qorabog'" mahalla fuqarolar yig'ini Surxondaryo viloyati Sherobod tumani hokimligining 1996-yil 2-apreldagi 190-sonli qarori asosida tashkil etilgan bo'lib, mahalla fuqarolar yig'ini sifatida belgilangan. MFY aholisi 4495 nafar, shundan erkaklar 2350 nafar, ayollar 2145 nafar, shu jumladan 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar 553 nafar (1227ta oila, 1065ta xonadon). "Qorabog'" MFY 6ta aholi punktidan iborat. "Qorabog'" yer maydoni 180,48 kmga teng. "Qorabog'" MFY Surxondaryo viloyati Sherobod tumani markazidan 26 km uzoqlikda joylashgan.

3.1.2 MFY XARITASI (BOSH SXEMASI)



Xarita-2. "Qorabog'" MFY Bosh rejasi sxemasi

3.1.3 INFRATUZILMA

Mahalla hududida 1 065ta xususiy xonadon mavjud. Aholisi 4495 nafar (shundan 2145 nafari ayollar pasportda), 1227ta oila. Mehnatga layoqatli aholi soni 1612 nafar, shundan 318 nafari turli tashkilotlarda, 487 nafari mavsumiy ishlarda ishlaydi, 342 nafari bolalar tarbiyasi bilan mashg'ul, 62 nafari talaba, 110 nafari respublika tashqarisida mehnat muhojiri, 293 nafari tadbirkor, hunarmand va boshqa bandlik turlari bilan mashg'ul.

Mahalla hududida 26ta ko'cha mavjud bo'lib, ulardan 6tasi markaziy, 20tasi tor, berk, shox ko'chalardan iborat. Mahalla hududida ikkita umumta'lim maktabi mavjud bo'lib, ularda 744 nafar o'quvchi tahsil oladi, ulardan 698 nafari ushbu mahallada yashaydi, qolganlari esa yaqin atrofdagi boshqa MFYlardan maktablarga qatnashadi. Shuningdek, mahallada 25 o'rinli uchta xususiy bog'cha mavjud bo'lib 75 nafar bolani qamrab olgan, ulardagi bolalardan 50 nafari ushbu mahalladan. MFYda 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning umumiy soni 418 nafarligini hisobga olsak, bog'chadagi o'rinlar yetarli emas.

Barcha uy xo'jaliklari elektrlashtirilgan, ammo elektr ta'minotining sifatsizligi jamiyatdagi asosiy muammo hisoblanadi. Elektr energiyasidan foydalanayotgan oilalar sonining ko'payishi munosabati bilan transformator quvvatining yetishmasligi muammosi yuzaga kelmoqda. 384ta eski elektr uzatish liniyasi ustunlari almashtirilishi kerak, shuningdek, 124ta yangi ustun o'rnatilishi kerak. Ko'chada tungi yoritish tizimi mavjud.

"Qorabog'" MFY aholisi markaziy suv ta'minotidan foydalanish imkoniyatiga ega emas. "Qorabog'" mahalla fuqarolar yig'inida 1045ta xonadon (100%) suv tarmog'iga ulanmagan, mahalla hududida ichimlik suvi skvajina orqali ba'zi bir hududlarda mavjud. Aholining ko'pchiligi uyda hovuz qurib ichimlik suvini 1 tonnasini 50 ming so'mdan sotib olib iste'mol qiladi. Aholi uyidan qazib ishlatayotgan quduqlardagi suv ichishga yaroqsiz deb topilgan. MFY markazlashtirilgan gaz quvuridan foydalanish imkoniyatiga ega. MFYda kanalizatsiya tarmog'i yo'q.

3.1.4 IQTISODIY SOHA

Mazkur mahallada 18ta do'kon, 1ta umumiy ovqatlanish shaxobchasi, 12ta fermer xo'jaligi, 1ta shaxsiy sport maydonchasi mavjud, to'yxona mavjud emas.

Shaxsiy tomorqalarning umumiy maydoni 243 gektarni tashkil etadi. 1065 ta xonadonda tomorqa, shundan 20ta xonadonda qo'shimcha tomorqa yerlari mavjud. 51ta xonadonda issiqxona tashkil etilgan. 915ta xonadonda yirik va mayda qoramol va boshqa chorva mollari boqiladi.

Jamiyatning asosiy iqtisodiy faoliyati dehqonchilik va xizmat ko'rsatish sohalaridan iborat. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismini bug'doy, makkajo'xori tashkil qiladi. Mahalla aholisi o'z tomorqalarida sabzavot, meva, dukkakli ekinlar yetishtiradi, chorvachilik bilan shug'ullanadi. Mahalliy aholi bandlik sifatida turli ekinlar yetishtirish, chorvachilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanadi va shu orqali o'zini ish bilan ta'minlaydi.

3.1.5 EKOLOGIK JIHATLARI

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, aholi kasalliklarining katta qismi atrof-muhit omillarining ta'siri oqibatidir. "Qorabog'" MFY aholi salomatligining asosiy muammolari aholining ekologik toza ichimlik suvi bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi, yirik sanoat korxonalarining maishiy va sanoat chiqindilari bilan havoning ifloslantirishi oqibatlaridir.

Atrof-muhit muammolari hozirgi va kelajak avlodlarning hayot sifatini belgilovchi eng dolzarb masaladir. Ob-havo sharoitining yomonlashishi inson salomatligiga ham, yer unumdorligiga ham inkor etib bo'lmaydigan darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Atrof-muhitni ifloslantiruvchi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohalari orasida chorvachilik alohida o'rin tutadi. Yirik va mayda chorva mollarini yetishtiruvchi fermalar atmosferaga, tuproqqa, yerusti va yerosti suvlariga zaharli moddalarni tarqatadi.

3.1.6 SWOT TAHLIL

Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Qorabog' MFY SWOT tahlili	
KUCHLI TOMONLAR	KUCHSIZ TOMONLAR
➤ Aholining hayrihohligi. ➤ Aholi ahil birlasha oladi. ➤ Mahalla hududida g'isht zavodi bor. ➤ Mahalla hududida oshxona va to'yxona mavjud. ➤ Ishsiz faol yoshlar mavjud (hashar yoki yonlanma ishchi kuchi uchun). ➤ Ishsiz ayollar bor (hashar uchun).	➤ Elektr energiyada tez tez uzilishlar bo'ladi. ➤ Ichki yo'llar asfalt emas. ➤ Tikuvchilik sexlari mavjud emas. ➤ Sement zavodi mavjud emas. ➤ Ichimlik suvi mavjud emas. ➤ TG a'zolari birlashmaydi. ➤ Mahalla aholisi o'rtasida zid fikrlar ko'p.
TASHQI IMKONIYATLAR	XAVF-XATAR

➤ ITB mablag'i. ➤ Jahon banki va Osiyo taraqqiyot bankining loyihalari. ➤ NNTlar grantlar. ➤ Openbudget.uz ➤ Hokimiyat jamg'armasi. ➤ Yirik tadbirkorlar. ➤ Davlat tomonidan qo'llab quvvatlash. ➤ Ijtimoiy hamkorlikning mavjudligi. ➤ Qo'shimcha ish bilan ta'minlash. ➤ Aholining iqtisodiy daromadining o'sishi.	➤ Pandemiya. ➤ Noqulay ob-havo. ➤ Tabiiy ofatlar. ➤ Korrupsiya. ➤ Tanish-bilishchilik. ➤ Hokimiyat va yuqori tashkilotlar aralashuvi. ➤ TG ning o'z ishini yaxshi olib bormasligi. ➤ Quruvchining mas'uliyatsizligi. ➤ Ishlamaydigan va eskirgan texnikalar.
---	--

3.1.7 ANIQLANGAN MUAMMOLARNING UMUMIY RO'YXATI

T/r	Muammo	Yechimlar	Muammoning qisqacha tavsifi (vizual tekshirishdan keyin)	Moliya-lashtirish manbai	Amalga oshirish yili	Ovoz be-rish
1.	Ichimlik suvi yo'qligi	Uchyog'och MFY hududida 2ta quduq qazish, 500 m ³ sig'imli suv inshooti qurish, 36.87 km ichimlik suvi tarmog'i tortish	Toza ichimlik suvi ta'minotini yetishmasligi, aholi yetarlicha ichimlik suvi bilan ta'minlanmaganligi	ITB	2025-2028	41
2.	35-maktabga sport zal va oshxonaning yo'qligi	Yangi sportzal (12x24m) va 50 o'rinli oshxona qurish, mavjud 60 o'rinli binoni mukammal ta'mirlash	35-maktab o'quvchilari sport bilan shug'ullanishlari uchun sportzal va ovqatlanishlari uchun oshxona yo'qligi o'rganildi	ITB	2025-2028	29
3.	34-maktabga sport zal va oshxonaning yo'qligi	96 o'rinli yangi o'quv binosi, 12x24m o'lchamda sport zal, 50 o'rinli oshxona, vorkaut qurish	O'quv xonalari yetishmasligi, sport bilan shug'ullanish imkoniyati va oshxona yo'qligi o'rganildi	ITB	2025-2028	26
4.	Qorabog' qishlog'ida davlat bog'chasining yo'qligi	Qorabog' qishlog'ida davlat bog'chasining yo'qligi	Qorabog' qishlog'ida davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yo'qligi	Boshqa manba	2025-2028	22
5.	Maydon qishlog'ida davlat bog'chasining yo'qligi	Maydon qishlog'ida davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti qurish	Maydon qishlog'ida davlat bog'chasining yo'qligi	Boshqa manba	2025-2028	21
6.	Sug'orish suvi yo'qligi	Aholini sug'orish suvi bilan ta'minlash	Dehqonchilik bilan shug'ullanish uchun sug'orish suvining yetishmasligi	Boshqa manba	2025-2028	16

T/r	Muammo	Yechimlar	Muammoning qisqacha tavsifi (vizual tekshirishdan keyin)	Moliyalashtirish manbai	Amalga oshirish yili	Ovoz berish
7.	Qorabog' qishlog'ida avtomobil ko'priginin g yo'qligi	Qorabog' qishlog'iga kirishda avtomobillar uchun ko'priq qurish	Qorabog' qishlog'iga kirishda avtomobillar soy orqali o'tib qiyinchilikka uchramoqda	Boshqa manba	2025-2028	11
8.	QVPda qamrovnin g kamligi	Mahalla hududiga qo'shimcha QVP qurish	Mahalla hududidagi QVPda tibbiy xizmat qamrovining yetishmasligi	Boshqa manba	2025-2028	5

3.1.8 USTUVOR MUAMMOLAR RO'YXATI VA ULARNI YECHISH YO'LLARI (ITB HISOBIDAN)

Muammo 1	
Ustuvor muammo	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash
Soha	Ijtimoiy infratuzilma
Yechim yo'llari	Uchyog'och MFY hududida 2ta artizan quduq qazish, 500 m ³ sig'imli suv inshooti qurish, 3ta qishloqqa 36.87 km uzunlikda ichimlik suvi tarmog'i tortish
Manfaatdor aholi soni	4 495
Moliyalashtirish manbai	ITB
Loyiha mablag'i	13 mlrd 498 mln so'm
Amalga oshirish yillari	2025-2028
BMT BRM bilan muvofiqligi	BMT BRM 6. Toza suv va sanitariya
Muammo 2	
Ustuvor muammo	35-maktabni rekonstruktsiya qilish
Soha	Ijtimoiy infratuzilma
Yechim yo'llari	35-sonli 360 o'rinli maktabni rekonstruktsiya qilish: 1. Sport zali qurish (12x24), 2. 50 o'rinli oshxona qurish, 3. Mavjud 60 o'rinli binoni mukammal ta'mirlash.
Manfaatdor aholi soni	612
Moliyalashtirish manbai	ITB
Loyiha mablag'i	2 mlrd 760 mln so'm
Amalga oshirish yillari	2025-2028
BMT BRM bilan muvofiqligi	BMT BRM 4. Sifatli ta'lim
Muammo 3	
Ustuvor muammo	34-maktabni rekonstruktsiya qilish
Soha	Ijtimoiy infratuzilma
Yechim yo'llari	34-sonli 240 o'rinli maktabni rekonstruktsiya qilish: 1. Yangi 96 o'rinli o'quv binosi qurish, 2. Sport zali qurish (12x24), 3. 50 o'rinli oshxona qurish, 4. Vorkout maydonchasini qurish.
Manfaatdor aholi soni	455
Moliyalashtirish manbai	ITB
Loyiha mablag'i	3 mlrd 348 mln so'm

Amalga oshirish yillari	2025-2028
BMT BRM bilan muvofiqligi	BMT BRM 4. Sifatli ta'lim
Muammo 4	
Ustuvor muammo	Piyodalar yo'lagi (tungi yoritish chiroqlari bilan birga) qurish
Soha	Ijtimoiy infratuzilma
Yechim yo'llari	1 km piyodalar yo'lagi (tungi yoritish chiroqlari bilan birga) qurish
Manfaatdor aholi soni	1 845
Moliyalashtirish manbai	ITB
Loyiha mablag'i	350 mln so'm
Amalga oshirish yillari	2025–2028
BMT BRM bilan muvofiqligi	BMT BRM 9. Sanoatlashtirish, innovatsiya va infratuzilma

3.1.9 SUBLOYIHALAR

1-SONLI SUBLOYIHA. ICHIMLIK SUVI TAMINOTINI YAXSHILASH

Muammoning qisqacha tavsifi	«Qorabog'» mahalla hududida ichimlik suvi skvajina orqali ba'zi bir hududlarda mavjud. Aholining 30%i skvajinadagi ichimlik suvidan foydalanadi. Qolgan 70%i uyda hovuz qurib ichimlik suvini 1 tonnasini 50 ming so'mdan sotib olib iste'mol qiladi. Mahalla hududidagi 1 dona skvajinadan 200 ta xo'jalik foydalanadi. Skvajinadan suv olishning 1 soati 20 ming so'mga to'g'ri keladi. Aholi uyidan qazib ishlatayotgan quduqlardagi suv ichishga yaroqsiz deb topilgan.	
Foto		
Loyihaning maqsadi	«Qorabog'» MFY aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni yaxshilash orqali ularning turmush sifatini ko'tarish va salomatligini yaxshilash.	
Loyihani amalga oshirish muddati	2025-2028 yillar	
Loyiha byudjeti	13 mlrd 498 mln so'm	
Loyihani amalga oshirish bosqichlari	- Davlat organlari bilan kelishish; - Arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini ishlab chiqish; - Qurilish uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish; - Qurilish kompaniyalari o'rtasida tender o'tkazish; - Loyihani amalga oshirish; - Monitoring va baholash; - Loyihani yakunlash.	
Loyihadan manfaatdor aholi soni	Erkaklar (shu jumladan bolalar)	2 350
	Ayollar (shu jumladan bolalar)	2 145
	Jami:	4 495
	Aholining qamrovi %	100%

HARAKATLAR REJASI VA ZARUR RESURLAR	
Dolzarb muammo	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash
Yechim yo'li	"Qorabog'" MFYda ichimlik suvining yo'qligini bartaraf etish uchun quyidagilar amalga oshiriladi, Uchyog'och MFY hududidan 2ta quduq qazish, 500 m³ sig'imli suv inshooti qurish, 3 ta qishloqqa 36.87 km suv tarmog'i tortish. Suv to'plash havzasidan Maydon qishlog'igacha 3 km magistral tarmog'i tortish 1. Adoq guzari ko'chasi - 2 km, 2. Adoq 2 guzari ko'chasi - 1 km, 3. Kovush guzari ko'chasi - 2 km, 4. Qo'rg'on guzari ko'chasi - 1 km, 5. Maktab ko'chasi - 1 km, 6. O'n olti guzari ko'chasi - 1 km, 7. Yuqori guzar ko'chasi - 2 km. Tarmoq Kayrit qishlog'i 1. Kayrit ko'chasi - 2 km. Suv to'plash havzasidan Qorabog' qishlog'igacha 4 km magistral suv tarmog'i tortish 1. Etak ko'chasi - 2 km, 2. Boxovuddin guzari ko'chasi - 2 km, 3. Xo'ja guzari ko'chasi - 187 km, 4. Fabot guzari ko'chasi - 3 km, 5. Jalovli ko'chasi - 3 km, 6. Mushmerzon ko'chasi - 3 km, 7. Koriz guzari ko'chasi - 3 km.
Bosqichlar	- Davlat organlari bilan kelishish; - Arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini ishlab chiqish; - 36.87 km ichimlik suvi tarmoqlari tortish, 2ta quduq, suv inshooti qurish uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish; - Qurilish kompaniyalari o'rtasida tender o'tkazish; - Loyihani amalga oshirish; - Monitoring va baholash; - Loyihani yakunlash.
Kutilayotgan natija	- MFY aholisi ichimlik suvi bilan ta'minlanadi; - Qishloq aholisining turmush darajasi yaxshilanadi; - Kasalliklar soni kamayadi; - Aholining xarajatlari kamayadi, chunki ular ichimlik suvini tashish va uni saqlash uchun quduqlar qurishga ortiqcha pul sarflamaydi.

LOYIHA NATIJALARINING BARQARORLIGI		
Loyiha tugagach aholi qanday manfaatlar oladi?	Loyiha tugagandan so'ng obyekt kimning balansiga o'tadi?	Olingan natijalarning nazorati va barqarorligi uchun kim javobgar?
- MFY aholisi ichimlik suvi bilan ta'minlanadi; - Qishloq aholisining turmush darajasi yaxshilanadi; - Kasalliklar soni kamayadi;	Tuman suv ta'minoti bo'limi	- Sherobod tumani hokimligi; - Tuman suv ta'minoti bo'limi; - «Qorabog'» MFY; - Tashabbuskor guruh.

- Aholining xarajatlari kamayadi, chunki ular ichimlik suvini tashish va uni saqlash uchun quduqlar qurishga va suvni sotib olishga ortiqcha pul sarflamaydi.		
Yillik ekspluatatsiya qilish xarajatlari	945 mln so'm	

Loyihaning ta'siri	Ijobiy	Salbiy	neytral	Loyihaning davomiyligi
a) Atrof-muhitga ta'siri:	☒	☐	☐	6 oy
b) Iqtisodiy ta'sir:	☒	☐	☐	
c) Ijtimoiy ta'sir:	☒	☐	☐	

2-SONLI SUBLOYIHA. 35-MAKTABNI REKONSTRUKTSIYA QILISH

Muammoning qisqacha tavsifi	1970-yilda qurilgan 210 nafar o'quvchiga mo'ljallangan 35-maktabda hozirgi vaqtda 462 nafar o'quvchi o'qiydi. 1.8 koeffitsiyent. Maktabda sport zal va oshxonaga ehtiyoj bor. Maktab hududida yer maydoni mavjudligi aniqlandi.		
Foto			
Loyihaning maqsadi	Bolalarning ta'lim olish sharoitlarini yaxshilash. Gigiyena qoidalariga rioya qilgan holda to'g'ri ovqatlanishni ta'minlash va o'quvchilar orasida yuqumli kasalliklarning oldini olish.		
Loyihani amalga oshirish muddati	2025 – 2028 yillar		
Loyiha byudjeti	2 mlrd 760 mln so'm		
Loyihani amalga oshirish bosqichlari	- Davlat organlari bilan kelishish; - Arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini ishlab chiqish; - Qurilish uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish; - Qurilish kompaniyalari o'rtasida tender o'tkazish; - Loyihani amalga oshirish; - Monitoring va baholash; - Loyihani yakunlash		
Loyihadan manfaatdor aholi soni	Erkaklar (shu jumladan bolalar)	317	
	Ayollar (shu jumladan bolalar)	295	
	Jami:	612	
	Aholining qamrovi %	36 %	

HARAKATLAR REJASI VA ZARUR RESURLAR	
Dolzarb muammo	35-maktabni rekonstruksiya qilish
Yechim yo'li	35-sonli 360 o'rinli maktabni rekonstruksiya qilish: 1. Sport zali qurish (12x24), 2. 50 o'rinli oshxona qurish, 3. Mavjud 60 o'rinli binoni mukammal ta'mirlash.
Bosqichlar	- Davlat organlari bilan kelishish; - Arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini ishlab chiqish; - 35-maktabda sport zal va 50 o'rinli oshxona qurish va mavjud 60 o'rinli binoni mukammal ta'mirlash uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish; - Qurilish kompaniyalari o'rtasida tender o'tkazish; - Loyihani amalga oshirish; - Monitoring va baholash; - Loyihani yakunlash
Kutilayotgan natija	– Bolalar uchun sharoitlar yaxshilandi. – Maktab aholisi, yoshlar, o'quvchilar qish mavsumida ham jismoniy tarbiya darslari bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ladi. - bolalar oshxonada gigeyan qoidalariga rioya qilgan holda to'g'ri ovqatlana olishadi va natijada bolalar orasida yuqumli kasalliklar va ko'cha ovqatlaridan zaharlanish kabi kasalliklarning oldi olinadi.

LOYIHA NATIJALARINING BARQARORLIGI		
Loyiha tugagach aholi qanday manfaatlar oladi?	Loyiha tugagandan so'ng obyekt kimning balansiga o'tadi?	Olingan natijalarning nazorati va barqarorligi uchun kim javobgar?
- ta'lim sifatini oshirish; - bolalarda sportga qiziqishni shakllantirish. - Turli xil yuqumli kasalliklarning oldini olish	Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	- Sherobod tumani hokimligi; - Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi; - «Qorabog'» MFY; - Tashabbuskor guruh.
Yillik ekspluatatsiya qilish xarajatlari	138 mln so'm	

Loyihaning ta'siri	ijobiy	salbiy	neytral	Loyihaning davomiyligi
a) Atrof-muhitga ta'siri:	☐	☐	☒	6 oy
b) Iqtisodiy ta'sir:	☒	☐	☐	
c) Ijtimoiy ta'sir:	☒	☐	☐	

3-SONLI SUBLOYIHA. 34-MAKTABNI REKONSTRUKTSIYA QILISH

Muammoning qisqacha tavsifi	34-maktab 1978-yilda qurilgan bo'lib 240 nafar o'quvchiga mo'ljallangan, hozirgi vaqtda 320 nafar o'quvchi o'qiydi. Koeffitsiyent 1.3 ga teng. Maktabda sport zal, oshxona yo'q.	
Foto		
Loyihaning maqsadi	Bolalarning ta'lim olish sharoitlarini yaxshilash	
Loyihani amalga oshirish muddati	2025 – 2028 yillar	
Loyiha byudjeti	3 mlrd 348 mln so'm	
Loyihani amalga oshirish bosqichlari	- Davlat organlari bilan kelishish; - Arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini ishlab chiqish; - Qurilish uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish; - Qurilish kompaniyalari o'rtasida tender o'tkazish; - Loyihani amalga oshirish; - Monitoring va baholash; - Loyihani yakunlash.	
Loyihadan manfaatdor aholi soni	Erkaklar (shu jumladan bolalar)	223
	Ayollar (shu jumladan bolalar)	232
	Jami:	455
	Aholining qamrovi %	42 %
HARAKATLAR REJASI VA ZARUR RESURLAR		
Dolzarb muammo	34-maktabni rekonstruktsiya qilish	
Yechim yo'li	34-sonli 240 o'rinli maktabni rekonstruktsiya qilish: 1. Yangi 96 o'rinli o'quv binosi qurish, 2. Sport zali qurish (12x24), 3. 50 o'rinli oshxona qurish, 4. Vorkaut maydonchasini qurish.	
Bosqichlar	- Davlat organlari bilan kelishish; - Arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini ishlab chiqish; - 34-maktabda 120 o'rinli o'quv binosi, sport zali (12x24m), 50 o'rinli oshxona, vorkaut qurish uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish; - Qurilish kompaniyalari o'rtasida tender o'tkazish; - Loyihani amalga oshirish; - Monitoring va baholash; - Loyihani yakunlash	
Kutilayotgan natija	– bolalar uchun sharoitlar yaxshilanadi; – o'quvchilar qish mavsumida ham jismoniy tarbiya darslari bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ladi; - bolalar oshxonada gigiyena qoidalariga rioya qilgan holda to'g'ri ovqatlana olishadi.	

LOYIHA NATIJALARINING BARQARORLIGI		
Loyiha tugagach aholi qanday manfaatlar oladi?	Loyiha tugagandan so'ng obyekt kimning balansiga o'tadi?	Olingan natijalarning nazorati va barqarorligi uchun kim javobgar?
- Ta'lim sifatini oshirish; - Bolalarda sportga qiziqishni shakllantirish. - Turli xil yuqumli kasalliklarning oldini olish.	Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	- Sherobod tumani hokimligi; - Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi; - «Qorabog'» MFY; - Tashabbuskor guruh.
Yillik ekspluatatsiya qilish xarajatlari		167,4 mln so'm

Loyihaning ta'siri	ijobiy	salbiy	neytral	Loyihaning davomiyligi
a) Atrof-muhitga ta'siri:	☐	☐	☒	6 oy
b) Iqtisodiy ta'sir:	☒	☐	☐	
c) Ijtimoiy ta'sir:	☒	☐	☐	

4 - SONLI SUBLOYIHA. PIYODALAR YO'LAGINI TUNGI YORITGICHLARI BILAN QURISH

Muammoning qisqacha tavsifi	"Qorabog'" mahallasi Qorabog' va Maydon qishloqlarida piyodalar va avtomobillar qatnovi ko'p. O'quvchilar maktabga qatnashga, aholi ishga borib kelishda piyodalar yo'lgi yo'qligi aholiga qiyinchilik tug'diradi. Yo'l harakati xavfsizligi, piyodalar yurishi uchun qulayliklar yo'qligi aniqlandi.		
Foto			
Loyihaning maqsadi	Aholi harakatlanishi uchun qulayliklar yaratish		
Amalga oshirish yili	2025–2028 yillar		
Loyiha budjeti	350 million so'm		
Loyihani amalga oshirish bosqichlari	- Davlat organlari bilan kelishish; - Arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini ishlab chiqish; - Qurilish uchun loyihaviy-smeta hujjatlari ishlab chiqish; - Qurilish kompaniyalari o'rtasida tender o'tkazish; - Loyihani amalga oshirish; - Monitoring va baholash; - Loyihani yakunlash.		
Loyihadan manfaatdor aholi soni	Erkaklar (shu jumladan bolalar)	1 000	
	Ayollar (shu jumladan bolalar)	845	
	Jami:	1 845	
	Jami aholi qamrovi %	41 %	

HARAKATLAR REJASI VA ZARUR RESURLAR	
Ustuvor masala	Piyodalar yo'lagi tungi yoritgichlari bilan qurish
Yechim	1 km piyodalar yo'lagi (tungi yoritish chiroqlari bilan birga) qurish. 1. Qorabog' ko'chasi - 600 m, 2. Maydon ko'chasi - 400 m.
Qadamlar	- Davlat organlari bilan kelishish; - Arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini ishlab chiqish; - 1 km piyodalar yo'lagini tungi yoritgichlari bilan qurish uchun loyihaviy-smeta hujjatlari ishlab chiqish; - Qurilish kompaniyalari o'rtasida tender o'tkazish; - Loyihani amalga oshirish; - Monitoring va baholash; - Loyihani yakunlash.
Kutilayotgan natija	- yo'l harakati xavfsizligi yaxshilanadi; - piyodalar yurishi uchun qulayliklar yaratiladi; - mahalla aholisining xavfsizligi oshadi.

LOYIHA NATIJALARINING BARQARORLIGI		
Loyiha tugagach aholi qanday manfaatlar oladi?	Loyiha yakunlangandan so'ng obyekt qaysi tashkilot balansiga o'tadi?	Olingan natijalarning nazorati va barqarorligi uchun qaysi tashkilot ma'sul hisoblanadi?
- yo'l harakati xavfsizligi yaxshilanadi; - piyodalar yurishi uchun qulayliklar yaratiladi; - mahalla aholisining xavfsizligi oshadi.	Tuman obodonlashtirish bo'limi.	Tuman hokimligi; Tuman obodonlashtirish bo'limi; "Qorabog'" MFY.
Yillik ekspluatatsiya xarajatlari	17,5 mln so'm	

Loyihaning ta'siri	Ijobiy	Salbiy	neytral	Loyihaning davomiyligi
a) Atrof-muhitga ta'siri:	☒	☐	☐	6 oy
b) Iqtisodiy ta'sir:	☒	☐	☐	
c) Ijtimoiy ta'sir:	☒	☐	☐	

3.1.10 TASHABBUSKOR GURUH RO'YXATI

T/r	Ism, familiyasi	Guruhdagi o'rni	Ish joyi
1.	Davronov Po'lat	TG raisi	Nafaqada
2.	Xaitqulova Aziza	TG raisi o'rinbosari	Maktab o'qituvchisi
3.	Qudratova Pardaxol	TG a'zosi	MFY xotin-qizlar faoli
4.	Bozorov Sanjar	TG a'zosi	Viloyat o'simliklar himoyasi boshqarmasi
5.	Umirov Xujamurod	TG a'zosi	Nafaqada

3.2 "ZARABOG'" MFY

3.2.1 MFY HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

"Zarabog'" mahalla fuqarolar yig'ini Surxondaryo viloyati Sherobod tumani hokimligining 2013-yil qabul qilingan qarori asosida tashkil etilgan bo'lib, mahalla fuqarolar yig'ini sifatida belgilangan. "Zarabog'" MFYning aholisi 3 705 nafar, shundan 1 940 nafar erkaklar, 1 765 nafar ayollar, shu jumladan 3 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar 1 215 nafar (649 ta oila, 720 ta xonadon). "Zarabog'" MFY 100 gektar yer maydonida joylashgan. "Zarabog'" MFY Surxondaryo viloyati Sherobod tumani markazidan 45 km uzoqlikda joylashgan. Mahalla 7 ta guzardan tashkil topgan.

3.2.2 MFY XARITASI (BOSH SXEMASI)



Xarita-3. "Zarabog'" MFY Bosh rejasi sxemasi

3.2.3 INFRATUZILMA

Mahalla hududida 720ta xususiy uy xo'jaligi, 22ta ko'cha mavjud. 14.7 km ichki yo'llarni asfalt yotqizish orqali qayta tiklash zarur. Barcha uy xo'jaliklari elektrlashtirilgan. MFYda uzluksiz elektr ta'minotini yo'lga qo'yish uchun 4ta transformatorni almashtirish/o'rnatish, 70ta eski ustunlarni almashtirish, shuningdek, 50ta tayanch ustun o'rnatish va 8 km uzunlikdagi eskirgan kabelni qisman almashtirish lozim. MFYda tunda ko'chalarni yoritish tizimi mavjud emas. "Zarabog'" MFYning aksariyat xonadonlari markaziy suv ta'minoti tarmog'idan ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan. Mahalladagi 6ta ko'chada 10 km 330 m uzunlikda suv quvurlarini o'rnatish zarur.

Mahallada kanalizatsiya tarmog'i mavjud emas, uy xo'jaliklari avtonom kanalizatsiyadan foydalanadilar. MFYda 2ta maktab bor va unda 845 nafar o'quvchi ta'lim oladi. Barcha o'quvchilar ushbu MFYda yashaydilar. MFYda 2ta bolalar bog'chasi ham bor, 1ta davlat bog'chasi, 1ta xususiy bog'cha hisoblanadi, ularga 168 nafar bola boradi, barcha bolalar ushbu MFYda yashaydilar.

3.2.4 IQTISODIY SOHA

